AUTIZM SINDROMLI BOLALARNI MAKTAB TA'LIMIGA VA INKLYUZIV SINFLARGA TAYYORLASHNING SAMARALI METODLARI

Qodirova Feruzaxon Usmonovna
Professor, Chirchiq davlat pedagogika universiteti, Chirchiq, O'zbekiston
ORCID: https://orcid.org/0000-0001-7439-5306
Email: feruzausmon@mail.ru

Raxmatullayeva Madinaxon Murodjon qizi
Magistrant, Chirchiq davlat pedagogika universiteti, Chirchiq, O'zbekiston
Email: madinaxon170703@gmail.com

Annotatsiya Ushbu maqolada autizm spektr buzilishiga ega bo'lgan bolalarni to'g'ri tashxislash jarayonining nazariy va amaliy jihatlari yoritilgan. Tadqiqotda autizm sindromli bolalarning xulq-atvori, muloqot jarayoni va umumiy rivojlanishidagi o'ziga xos xususiyatlar tahlil qilinadi. Shuningdek, ularning rivojlanishidagi kamchiliklarni bartaraf etish, ijtimoiy muhitga moslashuvini ta'minlash hamda ta'lim jarayoniga samarali integratsiya qilishda korreksion-rivojlantiruvchi ishlarning ahamiyati ochib beriladi. Maqolada diagnostika metodlari, erta aralashuv tamoyillari hamda pedagogik va psixologik yondashuvlarning uzviyligi asosida tashkil etiladigan ta'limiy faoliyatning samaradorligi yoritilgan. Tadqiqot natijalari autizm spektr buzilishiga ega bolalar bilan ishlashda individual yondashuv, inklyuziv ta'lim va ijtimoiy moslashuvni ta'minlash muhim omil ekanligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar autizm spektr buzilishi, autizm sindromi, diagnostika, erta aralashuv, korreksion-rivojlantiruvchi ishlar, ijtimoiy moslashuv, inklyuziv ta'lim.

Аннотация В данной статье рассматриваются теоретические и практические аспекты правильной диагностики детей с расстройствами аутистического спектра. В исследовании анализируются особенности поведения, коммуникации и общего развития детей с синдромом аутизма. Особое внимание уделяется устранению имеющихся нарушений, обеспечению социальной адаптации и эффективной интеграции детей в образовательный процесс посредством коррекционно-развивающей работы. В статье раскрывается значение диагностических методов, принципов раннего вмешательства, а также взаимосвязи педагогических и психологических подходов в организации образовательной деятельности. Результаты исследования показывают, что индивидуальный подход, инклюзивное образование и поддержка социальной адаптации являются важными факторами в работе с детьми с расстройствами аутистического спектра.

Ключевые слова: расстройства аутистического спектра, синдром аутизма, диагностика, раннее вмешательство, коррекционно-развивающая работа, социальная адаптация, инклюзивное образование.

Abstract This article examines the theoretical and practical aspects of accurate diagnosis of children with autism spectrum disorders. The study analyzes the behavioral characteristics, communication features, and general developmental patterns of children with autism syndrome. Particular attention is given to eliminating developmental deficiencies, ensuring social adaptation, and effectively integrating children into the educational process through correctional and developmental activities. The article highlights the importance of diagnostic methods, principles of early intervention, and the integration of pedagogical and psychological approaches in organizing educational work. The results of the study indicate that an individual approach, inclusive education, and support for social adaptation are key factors in working with children with autism spectrum disorders.

Keywords: autism spectrum disorder, autism syndrome, diagnosis, early intervention, correctional and developmental work, social adaptation, inclusive education.

KIRISH Autizm sindromli bolalar o‘z olamida yashashga o‘rganib qolgan bolalar sifatida, ularni muloqotga tortish o‘ziga xos jarayonlarni talab etadi. Bunday jarayonlardan biri – rivojlantiruvchi muhit hisoblanadi. Rivojlantiruvchi muhit esa mikro muhit darajasidagi muloqotdan va nutq vositalarining kengayishi evaziga makromuhitda qo‘llanishi darajasigacha rivojlanib boradi.

ADABIYOT TAHLILI VA METODOLOGIYASI

Mamlakatimizda imkoniyati cheklangan bolalarni o‘qitish, tarbiyalash va ijtimoiylashtirishning pedagogik, psixologik va metodik aspektlari Sh.M.Amirsaidova, M.M.Arslonova, M.Y.Ayupova, Z.N.Mamarajabova, L.R.Muminova, D.A.Nurkeldiyeva, P.M.Pulatova[, V.S.Raxmanova, Sh.E.Toxtiyorova, M.F.Xakimova, M.P.Xamidova, F.U.Qodirova, R.Sh.Shomahmudova, D.B.Yakubjanovalar va boshqalarning tadqiqotlarida tahlil etilgan. Pedagogik ta’lim innovatsion klasterining ilmiy-nazariy asoslari, uning uzluksizligi, uzviylik va izchillik bilan bog‘liq yangi innovatsion tuzilma ekanligi pedagog olimlar Sh.I.Botirova, B.X.Eshchanov, Sh.Q.Mardonov, G‘.I.Muxamedov, A.K.Raximov,S.A.Toshtemirova,va boshqa olimlar tomonidan autizm sindromli bolalarning ijtimoiylashuvi, psixologik rivojlanishi, ona-bola munosabatlarining o‘ziga xos jihatlari yuzasidan tadqiqot ishlari olib borilgan.

Maktabgacha ta’lim muassasalarida va oilalarda bolaning rivojlanishiga qaratilgan muhitni shakllantirishda bir qator muhim omillarni hisobga olish zarur. Bularga bolaning yoshi, personal imkoniyatlari va ehtiyojlari, shuningdek, hududning madaniy-tarixiy xususiyatlari kiradi. Rivojlantiruvchi muhitni yaratish jarayoni bolaning kognitiv, ijtimoiy, hissiy va jismoniy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlashga xizmat qilishi, shu bilan birga, uning o‘ziga xos ehtiyojlariga mos kelishi lozim. Ushbu muhitning mazmuni va tuzilishi quyidagi talablarga javob berishi kerak:

mazmunan boy – davlat o‘quv dasturiga mos keladigan, materiallar, jihozlar, bino hamda uning tashqarisidagi inventarlarning turli xil variantlarini o‘z ichiga oladi;

o‘zgaruvchan – ta’lim va tarbiya jarayonining sharoitiga hamda bolalarning qiziqishlari va imkoniyatlarining o‘zgarishi bilan bog‘liq ravishda rivojlantiruvchi muhitda o‘zgarishlarning amalga oshirilishi imkoniyatini ta’kidlaydi;

multifunksiyali – rivojlantiruvchi muhitning turli komponentlaridan samarali foydalanish imkoniyatini ta’minlaydi;

alternativ - guruhda turli xil joylar va rivojlanish markazlari, shuningdek, bolalarning erkin tanlovini ta’minlaydigan turli materiallar, o‘yinlar, o‘yinchoqlar va jihozlar mavjudligi; o‘yin

materialini muntazam yangilash, bolalarning o‘yin, harakat, bilish va tadqiqot faoliyatini rag‘batlantiradigan yangi narsalar va ashyolarni taqdim etish;

hammabop – tarbiyalanuvchilar, shu jumladan, alohida ta’lim ehtiyojiga ega bolalar uchun ta’lim va tarbiya jarayonida qo‘llaniladigan barcha faoliyat turlarini ta’minlaydigan o‘yinchoqlar, qo‘llanmalar va resurslar bilan ta’minlanganligi;

xavfsiz – barcha elementlarning foydalanish ishonchliligi va xavfsizligini ta’minlash uchun belgilangan talablar bilan mos kelishini anglatadi;

oqilona – davlat o‘quv dasturi va davlat talablariga mos zamonaviy rivojlantiruvchi muhitni yaratish, shuningdek, maktabgacha ta’lim tashkilotining turli ta’lim dasturlarini amalga oshirishda barcha imkoniyatlardan samarali foydalanish; inklyuziv ta’lim tashkil etilgan hollarda esa zarur shart-sharoitlarni ta’minlash;

mahalliy sharoitga moslashtirilgan – bu madaniy va tarixiy qadriyatlarni, milliy va mintaqaviy an’analarni, tabiiy sharoitlarni, iqlimga xos xususiyatlarni, shuningdek, hududdagi sanoat rivojlanishining o‘ziga xos jihatlarini hisobga olgan holda amalga oshirilishi;

shaxsga yo‘naltirilgan – pedagog har bir bolaning o‘z qiziqishiga ko‘ra shug‘ullanishini ta’minlashi kerak (bolalar guruh muhitida osongina harakat qilishadi, qayerda nima joylashganini biladilar, o‘yinchoqlar va barcha resurslardan erkin foydalana oladilar).

Rivojlantiruvchi muhit deganda bolani o‘rab turgan makon tushuniladi. U bolalarning to‘liq o‘sishi va rivojlanishi uchun zarur bo‘lgan shart-sharoit va vositalarni o‘z ichiga oladi. Bularga:

autizm sindromli bolaning o‘qish joyini tashkil qilish;

dozalangan o‘qish rejimini tashkil etish;

bolaning ish joyini tashkil qilish;

texnik o‘qitish vositalari (maxsus ta’lim ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan ixtisoslashtirilgan kompyuter o‘quv vositalari);

individual o‘quv dasturiga muvofiq bolalarning maxsus ta’lim ehtiyojlarini qondira oladigan maxsus darsliklar, ish daftarlari va didaktik materiallar.

Biz tadqiqotimiz davomida autizm sindromli bolalar nutqini rivojlantiruvchi muhitda shakllantirishda mikro muhit va makro muhit imkoniyatlarini o‘rgandik.

Mikro muhit – bu bolaning eng yaqin ijtimoiy doirasi, masalan, oila a’zolari, maktabgacha ta’lim tashkilotidagi pedagoglar yoki tengdoshlari bilan bo‘lgan muloqot muhiti hisoblanadi. Mikro muhitda jadval yoki aniq ko‘rsatmalar, rasmlar yordamida kun tartibini tushuntirish bolaga ishonch va barqarorlik hisini beradi. O‘yin – mikro muhitda muloqotni rivojlantirishning eng samarali usullaridan biri.

Makromuhit – bu bolaning kengroq ijtimoiy doiralar bilan, masalan, jamoat joylari: do‘kon, tibbiyot muassasasi, mahalla guzaridagi bolalar maydonchasidagi o‘zaro munosabatlari. Mikro muhitda o‘rganilgan ko‘nikmalar makromuhitda qo‘llanilishi va kengaytirilishi kerak.

NATIJALAR Autizm sindromli bolalarni muvaffaqiyatli rivojlantirishning muhim sharti zarur vizual materiallarning mavjudligi. Guruhda, uyda video va audio yozuvlarni (kompyuter, multimedia proyektori, ekran) namoyish qilish uchun uskunalar bo‘lishi kerak. Bolalar diqqatini rivojlantirish xususiyatiga yo‘naltirilgan vizual materiallar bolalarning kun davomida faoliyatini tashkil etish va nazorat etishda muhim omildir. Ushbu toifa har bir bola o‘z qiyinchiliklarini yengish uchun o‘ziga xos yordamga muhtoj bo‘lganligi sababli, eshitish, ko‘rish va teri-taktil asosida taqdim etilgan vizual materiallarni tanlash (yaratish) kerak. Bu har bir bolaga kognitiv muammolarni muvaffaqiyatli hal qilishga va rivojlanishning samarali yo‘llarini topishga yordam beradi.

Bola atrofida narsa va predmetlarning ko‘pligi ularning diqqatini chalg‘itishi, istalmagan, streotipik xatti-harakatlarning qo‘zg‘atuvchisi bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Yaxshi tashkil etilgan rivojlantiruvchi muhit boladagi hissiy yukni kamaytirishga va mustaqillik darajasini oshirishga yordam beradi.

Alohida ta’lim ehtiyojlariga ega bolalar uchun moslashtirilgan dasturning 5-7 yoshli bolalar guruhlarida o‘tkaziladigan mashg‘ulotlarning namunaviy ish rejasi

№		Mashg‘ulotlar nomi	Yosh			
			Maktabgacha o‘lgan kichik yosh (2 yoshdan 4 oshgacha)		Maktabgacha o‘lgan katta yosh (5 yoshdan 7 oshgacha)	
			Haftaga qitish atlari oni	Yiliga qitish atlari oni	Haftaga qitish atlari oni	Yiliga qitish atlari oni
Defektolog	1	Atrofdagi olam bilan tanishish/tabiat lan tanishish	1	36	1	36
	2	Nutqni rivojlantirish	3	108	2	72
	3	Nutqning tovush madaniyati	1	36	-	
	4	Savodxonlikka va yozishni o‘rganishga yyorgarlik	-	-	2	72
	5	Tuzatish ritmikasi	1	36	1	36
	6	Elementar matematik tasavvurlarni akllantirish, mantiq	1	36	1	36
	7	Jismoniy tarbiya	2	72	2	72
	8	Musiqa	2	72	2	72
	Jami:		**11**	**396**	**11**	**396**

Nutqning tovush madaniyati bo‘yicha 5-7 yoshlar kesimida soatlar ajratilmagan. Autizm sindromli bolalarda esa u mashg‘ulotlar muhim hisoblanadi. Shu sababli 5-7 yoshli bolalar guruhlarida ham nutqning tovush madaniyati mashg‘ulotlari haftasiga 2 soatdan o‘tilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

MUHOKAMA

Individual va frontal mashg‘ulotlar, bolaning o‘yin va mustaqil faoliyati uchun va zarurat bo‘lganda — relaksasion burchagi, sensor integratsiya xonasi kabi hududlarni zonalash orqali bolaning rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish muhim sanaladi. Bolaning individual-shaxsiy kunlik va rivojlantiruvchi mashg‘ulotlar jadvali joylashgan joyni aniq belgilash, shu bilan birga, bolalar va pedagoglar foydalanishlari mashg‘ulotlar materiallarini qulay joylashtirish muhimdir va aksincha, bola tomonidan egallangan bilim, ko‘nikmalarni mustahkamlashda qo‘llaniluvchi vositalar bola qo‘l ostidan uzoqroqda saqlanishi kerak. Chunki bola ehtiyoji tug‘ilgan, qiziqqan predmet va narsalarni olishda to‘siqqa uchrasa, muloqotga ehtiyoj tug‘iladi. Autizm sindromli bolalarda esa muloqotga qiziqishni tarbiyalash eng ustuvor vazifalardan biridir. Masalan, bola koptokka qiziqadi, koptokni uzoqroqqa qo‘yish kerak. Bola koptokni olish uchun pedagogga murojaat qilish ehtiyoji tug‘iladi. Bu orqali bola muloqotga motivlashtiriladi.

XULOSA

Autizm sindromli maktabgacha yoshdagi bolalarga moslashtirilgan personallashtirilgan metodikalar klaster mexanizmlarining asosiy tarkibiy qismi hisoblanadi. Ushbu metodikalar bolalarning yoshiga va individual xususiyatlariga mos ravishda ishlab chiqilib, ta’lim muhitida ularning nutqiy ko‘nikmalarini rivojlantirishga va tengdoshlari bilan muloqot qilish qobiliyatini oshirishga yordam beradi.

Autizm sindromli bolalar nutqi ustida ishlashning korreksion-didaktik mexanizmlarini takomillashtirishda konstruktivlik imkoniyatlari asosida korreksion-rivojlantiruvchi faoliyat trayektoriyasida axborot almashishga undovchi alternativ muloqot mashqlariga e’tibor qaratdik. Masalan, amaliyotda “Harakatni top” mashqi samarali mashq sifatida qo‘llanildi. Har bir harakatda bolaning nutqi bilan jismoniy salomatligiga katta e’tibor berilib, ushbu mashqlarni ishlab chiqishda hamda pedagogik va terapevtik ta’sir algoritmlar simulyasiyasini kuchaytirish asosida takomillashtirildi. Natijada harakatga asoslangan mashqlar orqali bolaning verbal va noverbal (mimik, imo-ishora) nutqi faol rag‘batlantirildi, nutqiy faoliyatni boshqarish va rejalashtirish qobiliyatlari mustahkamlandi. Shu bilan birga harakat mashqlari yordamida bola muvofiqlashtirish, muvozanat va umumiy harakat faolligini rivojlantirdi. Harakat va nutqni uyg‘unlashtirgan holda bajariladigan mashqlar bolalarda qiziqish, motivatsiya va faol ishtirokni kuchaytirdi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Qodirova F.U., Pulatova D.A. Autizm sindromli bolalar bilan ishlash metodikasi. O'quv qo'llanma. Chirchiq, "Zebo PRINT" 2023-y.
2. Raxmanova V.S, Nurkeldieva D.A. "Alohida yordamga muhtoj bolalar reabilitatsiyasi". Metodik uslubiy qo'llanma -Toshkent.; «Navro'z» nashrivoti., 2014 yil, 160-bet
3. Романович О.А., Кольцова Е.П «Диагностика психофизических процессов и речевого развития детей 5–6 лет». Гуманитарный издательский центр ВЛАДОС, 2013. — с 112.
4. Сандрикова В.С. Логопедические игры и упражнения для развития речи у детей с расстройствами аутистического спектра. Пособие для логопедов и родителей. Под научной редакцией О.В. Елецкой. Москва- «Редкая птица» 2019.
5. Schopler E., Mesibov G., Shingley R., Bashford A.: Helping autistic children though their parents. In: Schopler Eric, Mesibov Gary B. (Eds): The effect of autism on the family. New York, Plenum Press, (1984)
6. Xamidova M.U. "Maxsus pedagogika" o'quv qo'llanma. Toshkent - "NIF MSH" – 2020

References

1. Qodirova, F.U., & Pulatova, D.A. (2023). *Methods of Working with Children with Autism Syndrome*. Educational manual. Chirchiq: Zebo Print Publishing House.
2. Raxmanova, V.S., & Nurkeldieva, D.A. (2014). *Rehabilitation of Children in Need of Special Assistance*. Methodological guide. Tashkent: Navruz Publishing House, 160 p.
3. Romanovich, O.A., & Koltsova, E.P. (2013). *Diagnostics of Psychophysical Processes and Speech Development of Children Aged 5–6 Years*. Moscow: VLADOS Humanitarian Publishing Center, 112 p.
4. Sandrikova, V.S. (2019). *Speech Therapy Games and Exercises for the Development of Speech in Children with Autism Spectrum Disorders*. Manual for speech therapists and parents. Edited by O.V. Eletskaya. Moscow: Redkaya Ptitsa Publishing House.
5. Schopler, E., Mesibov, G., Shingley, R., & Bashford, A. (1984). *Helping Autistic Children Through Their Parents*. In: Schopler, E., & Mesibov, G. B. (Eds.), *The Effect of Autism on the Family*. New York: Plenum Press.
6. Xamidova, M.U. (2020). *Special Pedagogy*. учебное пособие (educational manual). Tashkent: NIF MSH Publishing House.